

QUDRATLI KUCHGA AYLANAYOTGAN YANGI O‘ZBEKISTON XALQIMIZNING BUYUK MAQSADLARI RO‘YOBIGA ZAMIN BO‘LADI

“Yangi O‘zbekiston” bog‘ida mustaqilligimizning o‘ttiz to‘rt yilligiga bag‘ishlangan tantanali bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi.



Har bir inson uchun hayotining muhim lahzalari bilan bog‘liq alohida sanalar bor. Bu kunlar har yili xotirlanadi, bayram qilinadi. Sababi, o‘sha daqiqalardagi hayajon, baxt va quvonchni yana bir marta tuyishga urinamiz. Axir umr fayzi, hayot qadri mana shunday yorqin jabhalarda o‘z ifodasini topadi. Umummillat, butun bir xalq sifatida ham shunday. O‘zbekiston xalqi uchun 1-sentabr — Mustaqillik

bayrami umrimizning mana shunday eng laziz onalaridan biri. Mana 34 yildirki, bu kunni katta shodiyona bilan o‘tkazamiz. Yil sayin bayram tantanalari shukuhi qo‘r olib, yurtdoshlarimiz yuzida mamnunlik, bugungi yashayotgan kunidan rozilik aks etmoqda, ko‘zlarida g‘ayrat, shijoat porlayapti. Bu nimadan darak beradi? Albatta, hayotimiz kundan-kunga

farovonlashib, mamlakatimiz erkinligi, tinchligi mustahkamlanib, davlatimiz taraqqiy etib borayotganining nishonasidir. Boisi, tinchlik, farovonlik bo‘lmagan joyda har qanday shodiyona ham insonlarning yuz-ko‘zi, qalbiga ko‘chmaydi. *Qarang, eng ulug‘, eng aziz bayramimizni nishonlash uchun “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga tashrif buyurgan nuroniylar, yoshlar — yurtdoshlarimiz chehrasida bugungi kun*

o‘zgarishlari, oxirgi sakkiz yilda amalga oshirilgan ortga qaytmas islohotlar samarasi, ozod va obod O‘zbekistonning mag‘rur va xushbaxt qiyofasi zohir. Ularning ko‘zlarida eng ulug‘ tuyg‘u — o‘z vatanida emin-erkin, go‘zal hayotiga egalik qilish hissi porlab turibdi... Bu gulgun yuzlarni ko‘rib, g‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiyning shoh satrlari xayolingga keladi.

G‘urbanda g‘arib shodmon bo‘lmas emish, El anga shafiqu mehribon bo‘lmas emish. Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa, Bulbulg‘a tikondek oshyon bo‘lmas emish. Haqiqatan, inson g‘urbanda, ya‘ni o‘z vatanidan olisda shod-xurram yasholmaydi. Hech bir el — o‘z og‘a-ining, do‘stu birodaring, millatdoshlaring kabi senga rahm-shafqat, mehribonlik ko‘rsatolmaydi. Ushbu bayt mag‘zi, mazmun-mohiyatini sharhlab

boraverganing sari mustaqillikning qanchalik ulug‘ ne‘mat ekanini yanada teranroq his qilasan kishi. ...Bayram sahnasi uzra chorlov sadosi yangraydi. Tantana ishtirokchilari, kameralar nigohi ko‘kka qadalladi: maxsus harbiy samolyot osmonu falakda chizgan nurlı yo‘l barcha yurtdoshlarimiz qalbiga ajib bir surur, faxr-iftixor baxsh etadi...

Davomi 5-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING O‘TTIZ TO‘RT YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, qadrlı vatandoshlar! Muhtaram mehmonlar! Xonimlar va janoblar! Siz, azizlarni, ko‘p millatli butun xalqimizni, xorijdagi vatandoshlarimizni O‘zbekiston mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik shonli sanasi bilan chin qalbidan tabriklayman. Istiqbol bayrami barchamizga muborak bo‘lsin! Hurmatli do‘stlar! Bugun, mana shu ulug‘ ayyom kunlarida hammamiz bir hayotiy haqiqatni chuqur his etmoqdamiz. Yangi O‘zbekiston g‘oyasi asosida boshlagan ulkan islohotlarimiz tufayli mustaqillik bergan huquq va erkinliklarni har bir yurtdoshimiz o‘z hayotida chuqur his qilib, bu imkoniyatlardan keng foydalanmoqda. Aynan ana shu ulug‘vor g‘oya asosida biz uch ming yillik boy tarix va madaniyatimizni qaytadan idrok etdik. Yurtimiz zaminidagi Birinchi va Ikkinchi Renessans an‘analarini rivojlantirib, Uchinchi Renessans sari dadil amaliy qadamlar qo‘ymoqdamiz. Ishonchim komil, bu yo‘lda Yangi O‘zbekiston davlati, Yangi O‘zbekiston jamiyati buyuk tariximizni yangi — yanada yuksak

Uyg‘onish davri bilan bog‘laydigan mustahkam ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. Mir Alisher Navoiy bobomizning **“Bu olamni yaratishdan maqsad — inson edi, inson baxtli ko‘rish edi”**, degan fikrlarida chuqur ma‘no mujassam. Xalqimiz asrlar davomida orzu qilib, kurashib o‘tgan inson qadrlini ulug‘lash, uni baxtli qilish — barcha islohotlarimizning ma‘no-mazmunini tashkil qilmoqda. **“Inson qadri uchun, inson baxti uchun”** degan ezgu tamoyilga asoslangan Yangi O‘zbekiston g‘oyasi amalda qudratli harakatga aylandi. Dunyodagi murakkab vaziyatga qaramasdan, iqtisodiyotimiz 6 foizdan yuqori sur‘atlarda barqaror o‘sayotgani xalqimiz o‘z tanlab olgan yo‘lidan dadil borayotganini ko‘rsatmoqda. Yurtimiz aholisi yiliga o‘rtacha 700-800 ming kishiga ko‘paymoqda. Mehnat bozoriga har yili 500-600 ming nafar yoshlar kirib kelmoqda. Buncha odamni o‘qitish, kasb-hunarli qilish, ularga ish topib berish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi, albatta. Buning uchun muntazam ishlaydigan tizim, kafolatlı investitsiya va infratuzilma kerak.

Shuni oldindan chuqur o‘ylab, biz bu yo‘nalishda aniq dasturlarni qabul qildik. Biz mahallagacha tushib, o‘zini o‘zi band qilgan tadbirkordan tortib, yirik biznesgacha — barchasini alohida yondashuv asosida qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tizim barpo etdik. To‘la ishonch bilan aytish mumkinki, Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlik iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi, oldinga boshlovchi katta kuchga aylandi. Raqamlarga e‘tibor beraylik: keyingi sakkiz yilda yalpi ichki mahsulotimiz 2 karra oshib, o‘tgan yili 115 milliard dollarga, eksport hajmi 26 milliard dollarga yetdi. Yil yakuni bilan yalpi ichki mahsulotimiz 130 milliard dollar bo‘ladi. Oltin-valyuta zaxiralарimiz tariximizda ilk bor 48 milliard dollardan oshdi, o‘tgan sakkiz yilda yurtimizga qariyb 130 milliard dollar xorijiy investitsiyalar kiritib keldi. Bularning barchasi islohotlarimiz samarasi, taraqqiyotimizning mustahkam kafolati, nufuzli moliya institutlari va xorijiy kompaniyalarning yuksak ishonchi emasmi?

Davomi 3-betda

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI RASMIY TASHRIF BILAN XITOIDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Zinpinning taklifiga binoan 30-avgust – 3-sentabr kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ladi.

O‘zbekiston yetakchisi 31-avgust – 1-sentabr kunlari Tyanszin shahrida o‘tadigan Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi majlisi va “SHHT plyus” formatidagi sammitda ishtirok etadi. Tadbirlar kun tartibidan ustuvor yo‘nalishlarda ko‘p tomonlama hamkorlikni kengaytirish va tashkilot faoliyatini yanada takomillashtirishning dolzarb jihatları o‘rin olgan. Uning yakunida Tyanszin

deklaratsiyasi, xavfsizlik, raqamli iqtisodiyot, “yashil” sanoat, energetika, turizm va boshqa sohalarida sheriklikni munosabatlarni yanada mustahkamlashga qaratilgan qo‘shma hujjatlar hamda qarorlar qabul qilinishi rejalashtirilgan. 2-sentabr kuni Pekin shahrida davlatimiz rahbari XXR Raisi Si Zinpin bilan muzokaralar hamda Xitoy rasmiy shaxslari va yetakchi kompaniyalari rahbarlari

bilan uchrashuvlar o‘tkazadi. O‘zbekiston bilan Xitoy o‘rtasidagi har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarni yanada mustahkamlash va amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston Prezidenti 3-sentabr kuni Ikkinchi jahon urushidagi G‘alabaning 80 yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbirlarda ishtirok etadi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON VA SHHT: UMUMIY TINCHLIK VA TARAQQIYOT YO‘LIDAGI HAMKORLIK

O‘zbekiston bir qator davlatlar bilan birgalikda o‘rni va ahamiyati yil sayin tobora ortib borayotgan Shanxay hamkorlik tashkilotini shakllantirish va mustahkamlash jarayonlarining boshida turgan edi. Ushbu tashkilotning faoliyati bugungi kunda nafaqat unga a‘zo bo‘lgan davlatlarning taraqqiyotiga, balki ushbu bepoyon mintaqada yashayotgan har bir insonning tinch va farovon hayotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Bu o‘rinda SHHT doirasidagi hamkorlik masalalari haqida so‘z yuritishdan oldin o‘zining ruhi, madaniyati, hayotbaxsh kuch-g‘ayratiga ko‘ra O‘zbekistonga o‘ta yaqin bo‘lgan mamlakat — **Xitoy Xalq Respublikasi bilan strategik hamkorligimiz** haqida to‘xtalib o‘tmoqchiman. Keyingi yillarda o‘zbek-xitoy munosabatlari siyosiy muloqot va xavfsizlikdan har tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlik va madaniy-gumanitar almashuvlargacha bo‘lgan eng muhim sohalarini keng qamrab olgan holda, barqaror rivojlanish sur‘atlarini namoyon etmoqda. Ularni izchil mustahkamlab borish Markaziy Osiyo va SHHT makonida barqarorlikni ta‘minlash va qat‘iy o‘shishga ko‘maklashadi. Ikki davlat yetakchilari o‘rtasidagi muntazam siyosiy muloqot ikki tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirishning muhim omiliga aylandi. Biz 2024-yil yanvar oyida Xitoyga amalga oshirgan davlat tashrifimiz davomida XXR Raisi Si Zinpin bilan birgalikda o‘zaro munosabatlarimizni misli ko‘rilmagan yuqori bosqichga — **yangi davrda barcha sharoitlarda har tomonlama yuqori strategik sheriklik** darajasiga olib chiqdik, xalqaro maydonda eng muhim kooperatsiya va hamkorlik yo‘nalishlarini belgilab oldik. O‘zaro munosabatlarimizdagi ilgari misli ko‘rilmagan rivojlanish **O‘zbekistonning qadrlı do‘sti, Rais Si Zinpinning keng qamrovli o‘zbek-xitoy hamkorligini yanada ravnaq toptirish va mustahkamlashga qaratayotgan shaxsiy e‘tibori va tinimsiz sa‘y-harakatlari** tufayli yuzaga keldi. Hukumatlararo qo‘mita, Parlamentlararo guruh va Tashqi ishlar vazirlari darajasidagi Strategik muloqot mexanizmlari tufayli barcha kelishuvlarimizni amalga oshirish ta‘minlanmoqda. Bir-birini to‘liq tushunish va tub manfaatlarini hisobga olish o‘zaro siyosiy ishonch va strategik sheriklikni mustahkamlashda qo‘l kelmoqda. **O‘zbekiston yagona Xitoy tamoyilini qat‘iy qo‘llab-**

quvvatlamogda. Biz Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish, “Markaziy Osiyoda sheriklik ruhi”ni shakllantirish bo‘yicha O‘zbekistonning sa‘y-harakatlari qo‘llab-quvvatlab kelayotgani uchun Xitoy tomonidan g‘oyat minnatdormiz. Bizning mamlakatlarimiz **“uchta yovuz kuch”** — terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashda ham faol hamkorlik qilmoqda. Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi tovar ayir-boshlash 2017-yildan buyon uch karra o‘sdi va 14 milliard dollarni tashkil etdi. Yaqin yillarda bu raqamni 20 milliard dollarga yetkazish mo‘ljallanmoqda. Ana shu davrda mamlakatimizga 24,6 milliard dollarlik Xitoy investitsiyalari jalb etildi. 2024-yilda yurtimizda va Markaziy Osiyoda birinchi marta BYD elektromobillarini ishlab chiqarish bo‘yicha korxona ishga tushirilgani, shuningdek, Toshkentda o‘zbekistonlik o‘quvchilar logistikani boshqarish va axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha zamonaviy ko‘nikmalarini egallayotgan “Luban ustaxonasi” ochilgani XXR bilan sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishda yangi davrni boshlab berdi.

Davomi 2-3-betlarda

O‘ZBEKISTON VA SHHT: UMUMIY TINCHLIK VA TARAQQIYOT YO‘LIDAGI HAMKORLIK

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekistonda xitoy tili va madaniyatini o‘rganishga Toshkent va Samarqanddagi Konfutsiy instituti xitoy tilini biladigan xitoyshunos va mutaxassislarning yangi avlodini tarbiyalagan holda, katta hissa qo‘shmoqda.

Bu yil O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida **vizasiz rejim** joriy etilgani gumanitar hamkorlikni yanada chuqurlashtirish yo‘lidagi ulkan qadam bo‘ldi. Bu xalqlarimiz orasida yanada faol va samarali muloqotni, ishbilarmonlar hamkorligi va turizm almashuvlarini yo‘lga qo‘yish uchun shart-sharoit yaratadi.

Hech shubhasiz, hozirgi zamonaviy bosqichda o‘zbek-xitoy hamkorligi mintaqaning barqaror rivojlanishi va SHHTning o‘zaro foydali bo‘lgan ko‘p tomonlama hamkorlik platformasi sifatidagi pozitsiyasini mustahkamlashga ko‘maklashadigan **pragmatik va mutanosib sheriklik modeliga** aylanib bormoqda.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, **xalqaro ahvol murakkablashib borayotgan** hozirgi sharoitda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi barqaror munosabatlarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish alohida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahonda mavjud tizim chuqur silkinishlarni boshdan kechirmoqda. Xalqaro huquqning umume’tirof etilgan me’yor va prinsiplariga asoslangan ilgirigi tartibot barqarorligiga putur yetmoqda.

Xalqaro munosabatlarda yuz berayotgan keng miqyosdagi transformatsiya jarayonlari buyuk davlatlar o‘rtasidagi geosiyosiy raqobatning o‘sishi va qarama-qarshilik xavfining ortishi, qaror topgan kuchlar nisbatining buzilishi hamda jamoaviy boshqarish mexanizmlarining usayishi bilan birga kechmoqda.

Global xavfsizlik arxitekturasini ishonch inqiroziga duch kelgan holda, kuchayib borayotgan tahdid va xavf-xatarlar oldida tobora zaif bo‘lib qolmoqda. Bu yaqin istiqbolda bartaraf etish qiyin bo‘lgan yanada katta parchalanishlarga olib keladi.

“**Mamlakatlar jahon iqtisodiyotida proteksionizmning o‘sishi, an’anaviy mahsulot yetkazib berish zanjirlarining uzilishi va ishlab chiqarish quvvatlarining qayta taqsimlanishiga to‘qnash kelmoqda. Favqulodda muhim bo‘lgan xomashyo resurslari va texnologiyalardan foydalanish uchun raqobat kuchaymoqda, raqamli va “yashil” transformatsiyada yetakchilik uchun kurash keskinlashmoqda. Global iqtisodiy o‘sishning sekinlashuvi, iftiyatsiyaning yuqoriligi va moliya bozorlaridagi beqarorlik dunyodagi taraqqiyot markazlari o‘rtasida tafovutni kuchaytirgan holda, rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega mamlakatlar uchun qo‘shimcha xavf-xatarlarni keltirib chiqarmoqda.**

Ana shu jarayonlar natijasida nafaqat tiyib turadigan va muvozanatni saqlaydigan tizim, savdo va moliya sohalari, balki jahon miqyosidagi *xavfsizlikni ta’minlash, kambag‘allikka qarshi kurash, iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq aksariyat muammolarni* hal etish ham kuchli bosim ostida qoldi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida keng miqyosdagi ijtimoiy-iqtisodiy silkinishlarning sababchisi bo‘lishi mumkin bo‘lgan *iqlim o‘zgarishlari oqibatlari, oziq-ovqat va energetika tizimidagi beqarorlik* tobora qudratli tahdidga aylanmoqda.

Barcha mamlakatlar uchun yana bir umumiy tahdid — *sun’iy intellektning rivojlanishidir*. O‘z-o‘zidan ravshanki, bu — to‘xtatib bo‘lmaydigan tabiiy jarayon, lekin bizning vazifamiz — undan harbiy maqsadlarda foydalanishga va uning global xavf-xatarga aylanishiga yo‘l qo‘ymaslikdan iborat.

Hech qanday mulbog‘asiz aytishim mumkinki, ana shunday sharoitda **Shanxay hamkorlik tashkiloti** hamkorlikni tenglik, manfaatlarni o‘zaro hisobga olish va ichki ishlarga aralashtirish prinsiplari asosida birlashtiradigan **xalqaro hamkorlikning jozibali va keng miqyosda talab etiladigan modeliga** aylanib bormoqda.

SHHT tashkil etilgan davrdan boshlab o‘zaro ishonch, o‘zaro foyda, turli sivilizatsiyalarga hurmat va birgalikdagi taraqqiyotga intilishga asoslangan **“Shanxay ruhi”**ni qaror topdirdi va izchil oldinga siljitmoqda. Tashkilot pul tikmasdan o‘ynash va sivilizatsiyalar to‘qnashuviga xos fikrlash tarzini yengib o‘tib, “eskirgan sovuq urush” konsepsiyasidan to‘liq voz kechdi.

SHHT **qo‘shilmaslik, qarama-qarshilikka bormaslik va uchinchi tarafga qarshi harakat qilmaslik g‘oyalari**ni faol ilgari surmoqda va hayotga joriy etmoqda. Ushbu birlashma katta-

kichik davlatlarning **to‘laqonli tengligi**, konstruktiv maslahatlashuvlar orqali **murosaga erishish**, shuningdek, **muloqot va hamkorlik yo‘li bilan tinchlikka ko‘maklashish** tarafdori bo‘lib maydonga chiqmoqda. Tashkilotimizning joziba kuchi va qudrati aynan shunda mujassamd.

Shanxay hamkorlik tashkiloti o‘zaro uyg‘unlikda, birgalikda yashash va o‘zaro foydali hamkorlik g‘oyalarning yashashga qodir ekanini namoyon etgan holda, turli siyosiy tizimga, tarixiy-madaniy an‘analar va iqtisodiy rivojlanish darajasiga ega bo‘lgan davlatlarni muvaffaqiyatli ravishda birlashtirib kelayotgani ko‘p tomonlama hamkorlik imkoniyatlari ortib borayotganining dalilidir.

Bugungi kunda SHHTning “katta oilasi” 10 ta a‘zo davlatni, 2 ta kuzatuvchi va 14 ta muloqot bo‘yicha sherik mamlakatni birlashtiradi, Osiyo, Yevropa va Afrikadagi bepoyon makonni qamrab oladi. SHHTga a‘zo mamlakatlarning umumiy hududi Yevroosiyo makonining 60 foizdan ko‘pini, aholisi esa sayyoramizning taxminan 42 foiz nufusini tashkil etadi. Tashkilotga a‘zo davlatlarning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi qariyb 25 foizdan iboratdir.

BMT Xavfsizlik Kengashining ikkita doimiy a‘zosi va “Yigirmatalik guruhi”ga kiradigan 5 ta mamlakat — Hindiston, Xitoy, Rossiya, Saudiya Arabistoni, shuningdek, BRICS birlashmasining 5 ta a‘zosi — Hindiston, Eron, Xitoy, BAA va Rossiya SHHT “oilasi”da faoliyat ko‘rsatmoqda.

Shu tariqa SHHTning zamonaviy qiyofasi nafaqat uning Yevroosiyo makonidagi keng geografiya-sini, balki unga a‘zo davlatlarning ko‘p qutbli yangi dunyoni shakllantirishdagi roli tobora ortib borayotgan global jarayonlar bilan o‘zaro kuchli bog‘liqligini ham ko‘zudek aks ettiradi.

Tashkilot faoliyat ko‘rsatib kelayotgan yillar davomida xavfsizlikdan boshlab iqtisodiyot, madaniyat va barqaror taraqqiyotgacha bo‘lgan keng ko‘lamdagi yo‘nalishlarni qamrab oladigan 60 dan ortiq xalqaro shartnomalar va 40 dan ziyod ishchi mexanizmlarni o‘zida mujassam etgan mustahkam institutsional asosga ega bo‘lgani — uning o‘sib borayotgan hamkorlik salohiyatining yana bir muhim omiliga aylandi.

SHHT **doimo harakatda, uning tadriijiy rivojlanish salohiyati bitmas-tuganmasdir**. Konseptual dastur va strategiyalar, shuningdek, SHHT doirasidagi tarmoqlar bo‘yicha hamkorlikning yangi mexanizm va shakllari savdo-iqtisodiy va transport sohalaridagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash, sanoat kooperatsiyasi va texnologik jihatdan bir-birini to‘ldirish, mamlakatlarimizning “yashil” va raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonlarini tezlashtirishga katta hissa qo‘shmoqda.

Xalq diplomatiyasi, madaniyat, ta’lim va turizm sohalaridagi almashuvlar, xalqlar o‘rtasida do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik g‘oyalari faol ilgari surish orqali “Shanxay ruhi”ni ifoda etishga yo‘naltirilgan noyob gumanitar loyihalar tufayli Tashkilotimiz ich-ichidan yanada jips va kuchli bo‘lib bormoqda.

SHHT o‘zini xalqaro hamkorlikning faol ishtirokchisi va ko‘p tomonlama diplomatiyaning samarali platformasi sifatida namoyon etdi. Tashkilot BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari, shuningdek, bir qator mintaqaviy va xalqaro tuzilmalar, jumladan, MDH, BRICS, Yevroosiyo II, ASEAN, IHT, Osiyoda o‘zaro hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengash, Arab davlatlari ligasi va boshqa birlashmalar bilan aloqalarni faol rivojlantirmoqda.

Bularning barchasi yuqori darajadagi yetuklikdan va ko‘p tomonlama hamkorlikning tizimli ekanidan dalolat beradi. Faol institutsional rivojlanish, ko‘p tarmoqli hamkorlikni ilgari surish va xalqaro aloqalarni kengaytirish, global miqyosda tinchlik, barqarorlik va taraqqiyot ishiga xizmat qiladigan **SHHTning mas’uliyatli, ochiq va inkluziv mexanizm** sifatidagi obro‘-e’tibori va rolini mustahkamlashga ko‘maklashmoqda.

SHHT **mayjud tuzilmalarga qarshi qaratilgan tahdid emas, balki kuch o‘rniga muloqotga asoslangan yangi, adolatli jahon tartiboti talabiga javobdir**. Qarama-qarshilik va mafkuraviy tafovutlar kuchayib borayotgan dunyoda **SHHT aniq muqobil yo‘lini taklif etmoqda**. Bu o‘zaro hurmat, muloqot va birgalikda rivojlanish tamoyillaridir.

XXR Raisi Si Szinpin haqqoniy ravishda qayd etganidek, **“Tarix g‘ildiragini ortga aylantirib bo‘lmaydi, faqat oldinga qarab borish muhimdir. Bizga bo‘lingan emas, yagona va yaxlit dunyo zarur”**. Zamonaviy tahdidlarni hisobga olgan holda, SHHTning qandaydir blokka aylanishi va boshqa xalqaro tuzilmalarga qarshi bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik g‘oyat muhimdir. **Bizning bosh maqsadimiz — xalqaro vaziyatni keskinlashtirish emas, balki tinchlikka asoslangan kun tartibini namoyon etish, umuminsoniy muammolarni hal qilish uchun SHHT imkoniyatlaridan foydalanishdan iborat.**

SHHT doirasidagi hamkorlikni bosqichma-bosqich va keng ko‘lamli rivojlantirish tasdiqlari sifatida

O‘zbekiston Tashkilot tuzilgan va rivojlangan birinchi kunlardan boshlab aynan ana shu qarashga amal qilib kelmoqda.

Mamlakatimiz SHHT doirasidagi o‘zaro hamkorlikning faol ishtirokchisi sifatida Tashkilotga to‘rt marta raislik qildi va uning rivojiga munosib hissa qo‘shdi.

SHHTning 2004-yilda bo‘lib o‘tgan *birinchi* Toshkent sammiti, avvalo, O‘zbekiston poytaxtida Tashkilotning ikkita doimiy organlaridan biri bo‘lgan SHHTning Mintaqaviy aksilterrorchilik tuzilmasi (MATT) Ijroiya qo‘mitasining bosh qarorgohi ochilishi bilan esda qoldi.

Davlat boshliqlari kengashining muhim qarorlaridan yana biri SHHT huzurida kuzatuvchi davlat maqomini berish shartlari va tartibi haqidagi qarorning qabul qilinishi bo‘ldi. SHHTga ayni shu maqomda qo‘shilgan birinchi mamlakat Mo‘g‘ulistonidir. Mamlakatlarimizning Shanxay hamkorlik tashkilotining ochiqlik xususiyatini amalda ta’minlash borasidagi qat’iyati shunda namoyon bo‘ldi.

“**Toshkentda 2010-yilda o‘tkazilgan ikkinchi sammitning ahamiyati yangi a‘zolarni qabul qilish tartibi va SHHT faoliyatining tashkiliy asoslarini belgilab bergan hujjatlarining qabul qilinishi orqali ta’minlandi. 2016-yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan davlat rahbarlarining uchinchi yig‘ilishida Tashkilotni kengaytirishning birinchi bosqichi haqida muhim qaror qabul qilindi: uning safiga Hindiston va Pokiston teng huquqli ishtirokchi davlat sifatida qabul qilindi.**

O‘zbekiston 2017-yildan boshlab SHHTga a‘zo mamlakatlarning amaliy hamkorligini rivojlantirish bo‘yicha takliflarni ilgari surgan holda, Tashkilot ishidagi faoliyatini sezilarli ravishda faollashtirdi. Mamlakatimiz tomonidan taklif etilgan, umuman olganda, 105 ta tashabbusdan 80 dan ziyodi hozirgi vaqtgacha muvaffaqiyatli amalga oshirildi, ular siyosiy, iqtisodiy, innovatsion va gumanitar hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan.

Hech shubhasiz, **2022-yilda**, pandemiyadan so‘ng birinchi marta o‘tkazilgan **Samarqand sammiti** xalqaro diplomatiya olamidagi yirik voqea bo‘ldi va SHHT faoliyatida yangi davrni boshlab berdi, uning yakunlariga ko‘ra, 40 dan ziyod muhim ahamiyatga molik qarorlar, kelishuvlar, dasturlar va konseptual hujjatlar qabul qilindi. Ularning orasida davlat rahbarlarining Tashkilotni kengaytirishning ikkinchi bosqichi — Eronga a‘zo davlat maqomini berish, shuningdek, Belarusni SHHTga qabul qilish tartib-taomilini boshlash to‘g‘risidagi prinsipial qarorlari alohida e’tiborni tortadi.

O‘zbekistonning eng asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri — **SHHTning o‘zak-negizi sifatida Markaziy Osiyoning rolini mustahkamlashdan** iborat. Kengayish jarayonlari natijasida Tashkilotga Janubiy Osiyo va O‘rta Sharq mamlakatlari qo‘shildi va bizning mintaqamiz bepoyon Yevroosiyo makonida joylashgan SHHT davlatlari o‘rtasida tabiiy ravishda bog‘lovchi bo‘g‘inga aylandi.

Markaziy Osiyoda mintaqaviy kooperatsiyani rivojlantirish SHHTga a‘zo mamlakatlarning o‘zaro hamkorligini faollashtirish, xavfsizligini mustahkamlash va taraqqiyotini ta’minlashga ko‘maklashadi. 2017-yilda O‘zbekiston tashabbusi bilan mintaq mamlakatlarini jipslashtirgan va hamkorlikni chuqurlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratib bergan **mintaqaviy birlashish bo‘yicha Markaziy Osiyo jarayoni** harakatga keltirildi.

Ko‘plab dolzarb muammolarni hal etishni ta’minlagan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining siyosiy irodasi hamda turli qo‘shma loyihalarining ishga tushirilishi tufayli tinch, barqaror va umumiy maqsadlar atrofida birlashgan Markaziy Osiyoni barpo etishga erishildi.

Bu yil O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining muntazam uchrashuvlari mexanizmida raislik qilmoqda. Shu yil kuz faslida bo‘lib o‘tadigan **“Markaziy Osiyo beshligi”** sammiti Yangi Markaziy Osiyoni shakllantirish jarayonida tub burilish yasashi kutilmoqda. Bu anjuman ikki tomonlama xalqaro masalalarni hal etish bosqichidan endilikda barcha mamlakatlar uchun ustuvor bo‘lgan umummintaqaviy vazifalar — mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish, iqlim o‘zgarishlari oqibatlarini bartaraf etish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, mintaqada xavfsizlikni mustahkamlash, energetika sohasini rivojlantirish, raqamli va “yashil” transformatsiyani amalga oshirish masalalarini hal etish bo‘yicha sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tishni boshlab beradi.

Xalqaro hamkorlik uchun yanada o‘zaro bog‘liq va ochiq bo‘lgani natijasida mintaq SHHTga a‘zo

mamlakatlar o‘rtasidagi ko‘p tomonlama kooperatsiya-ni faol ishtirokchisiga aylanmoqda. SHHT makonida barqarorlikni va Tashkilotimizning kelgusidagi yutuqlarini ta’minlashning favqulodda muhim omiliga aylanagan holda, Markaziy Osiyodagi tarixiy o‘zgarishlar ortga qaytmaydigan, barqaror va muqarrar tus oldi deb ishonch bilan aytish mumkin.

Xitoy Shanxay hamkorlik tashkilotining ta’sischilaridan biri va uning eng asosiy ishtirokchisi sifatida qariyb chorak asr davomida SHHT doirasidagi rivojlanish va ko‘p tomonlama hamkorlikni mustahkamlashga ulkan hissa qo‘shib kelmoqda, desak, hech qanday mulbog‘a bo‘lmaydi.

Xitoy tomoni Tashkilotning institutsional va shartnomaviy-huquqiy rivojida hal qiluvchi rol o‘ynadi. Pekinda ta’sis etilgan, doimiy faoliyat ko‘rsatadigan organ — SHHT Kotibiyati hamkorlikni rivojlantirish va davlat rahbarlari tomonidan qabul qilingan qaror va kelishuvlarni amalga oshirishga muhim hissa qo‘shmoqda.

Xitoy rahbariyatining izchil va uzoqni ko‘zlab olib borgan siyosati, avvalo, XXR Raisi Si Szinpinning tashabbuslari Tashkilot doirasida zamonaviy hamkorlik arxitekturasini muvaffaqiyatli shakllantirishga ko‘maklashdi.

Xitoy terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurash, SHHTning Toshkentdagi Mintaqaviy aksilterrorchilik tuzilmasi salohiyatini mustahkamlash bo‘yicha birgalikdagi sa’y-harakatlarni faol qo‘llab-quvvatlamqda.

Geosiyosiy beqarorlik ortib borayotgan sharoitda Xitoy **Xavfsizlik sohasidagi global tashabbuslar** doirasida xavfsizlikning bo‘linmasligi, global tahdidlarga teng huquqlilik asosida yondashish hamda SHHTga a‘zo mamlakatlar o‘rtasida sa’y-harakatlarni muvofiqqlashtirish muhimligi haqidagi g‘oyalarni ilgari surmoqda. Ushbu prinsiplar inqirozlar, kiber xavf-xatarlar hamda transmilliy jinoyatchilikka qarshi birgalikda kurash olib borish mexanizmlarini yanada rivojlantirish uchun yo‘nalish hisoblanadi.

Biz Xitoyning Afg‘oniston umumiy mintaqaviy xavfsizlikning ajralmas qismi va **katta SHHT o‘lasining muhim a‘zosi** ekanini haqidagi fikrini to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz. Xitoy tomoni Afg‘onistonga qo‘shni mamlakatlar va afg‘on muammosini hal etish bo‘yicha boshqa platformalarning o‘zaro hamkorlik mexanizmlarini faollashtirishga, insonparvarlik yordamini kuchaytirishga, ushbu davlatni iqtisodiy jihatdan tiklashga ko‘maklashishga chaqiradi.

Shu munosabat bilan **SHHTda kuzatuvchi davlat bo‘lgan Afg‘onistonni mintaqaviy savdo-iqtisodiy aloqalar hamda mintaqalararo o‘zaro bog‘liqlikni rivojlantirish bo‘yicha hamkorlikka jalb etishning prinsipial jihatdan ahamiyatini** ham alohida ta’kidlab o‘tmoqchiman.

Ushbu mamlakat bir necha o‘n yillar davomida beqarorlik va mintaqaviy xavfsizlikka nisbatan xavf-xatar o‘chog‘i bo‘lib keldi, lekin bugungi kunda u mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirish uchun imkoniyatlar manbaiga aylanmoqda. Shuning uchun ham **O‘zbekiston Xitoy tomonining SHHT — Afg‘oniston Muloqot guruhi ishini tiklash haqidagi qarorini to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi**, bu xavfsizlikka nisbatan xavf-xatarlarga qarshi kurashish hamda ushbu mamlakatning ulkan resurs va tranzit salohiyatini amalga oshirish bo‘yicha masalalarni birgalikda hal etish imkonini beradi.

Taraqqiyot bo‘yicha global tashabbusni ilgari surib, Xitoy 2030-yilgacha bo‘lgan barqaror rivojlanish sohasidagi Kun tartibini amalga oshirishga katta hissa qo‘shmoqda, infratuzilmalar borasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yaxshilash, “yashil” va raqamli transformatsiya, kooperatsiyani chuqurlashtirishga ko‘maklashmoqda.

Xitoy g‘oyat boy madaniy merosga va necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan holda, **Sivilizatsiyalar bo‘yicha global tashabbusni** muvaffaqiyatli ravishda ilgari surmoqda, bu mamlakatlarimiz xalqlarini madaniy-gumanitar jihatdan yaqinlashtirishga ko‘maklashmoqda.

SHHTning barqaror rivojlanish yili deb e’lon qilingan 2024-2025-yillarda Xitoyning Shanxay hamkorlik tashkilotiga raislik qilishi mamlakatlarimiz iqtisodiy o‘shining yangi drayverlari, jumladan, “yashil” va raqamli transformatsiyani shakllantirishga katta hissa bo‘lib qo‘shildi.

Xitoy tomoni **Markaziy Osiyoning SHHTning o‘zak-negizi sifatidagi rolini qat’iy qo‘llab-quvvatlab kelmoqda**, mintaq mamlakatlari bilan ham ikki tomonlama asosda, ham Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida ishonchli, teng huquqli va o‘zaro foydali munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan siyosatni olib bormoqda.

Mintaga mamlakatlarida amalga oshirilayotgan modernizatsiya strategiyalarining Xitoy tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgani, ayniqsa, muhimdir. Shu o‘rinda Rais Si Szinpinning Sianda bo‘lib o‘tgan **“Markaziy Osiyo — Xitoy”** formatidagi sammitda so‘zlagan nutqida bildirgan fikrlarini eslatib

o‘tmoqchiman. U: **“Barqaror, taraqqiy etgan, uyg‘un rivojlangan va o‘zaro bog‘liq Markaziy Osiyo dunyo uchun o‘ta zarurdir”**, — deb ta’kidladi. Ushbu formatning Ostonada bo‘lib o‘tgan ikkinchi sammitida Xitoy yetakchisi **“Xitoy — Markaziy Osiyo ruhi”**ni ishlab chiqish va shakllantirishga chaqirdi, ishonchimiz komilki, bu “Shanxay ruhi”ga to‘laqonli ravishda mos keladi va SHHT doirasidagi hamkorlikni mustahkamlashga ko‘maklashadi.

Ushbu nashr o‘quvchilarida **mamlakatimiz Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatida ishtirok etar ekan, O‘zbekistonning bu boradagi manfaatlari nimalardan iborat va biz bundan olishimiz mumkin bo‘lgan asosiy foyda va amaliy naf nimalarda ko‘rinadi** degan savol tug‘ilishi mumkin.

Avvalo, mamlakatimiz SHHT orqali dunyodagi beshta birinchi iqtisodiyot tarkibiga kiradigan Xitoy va Hindiston kabi a‘zo davlatlarning yirik bozorlariga kirib boradi. O‘zbekistonning uchta eng yirik savdo sherigi bu — Xitoy, Rossiya va Qozog‘istondir.

SHHTga a‘zo davlatlar **transport-logistika sohasida hamkorlik** bo‘yicha mamlakatimizning asosiy sheriklari hamdir. Tashkilotdagi sheriklarimiz bilan hamkorlikda infratuzilma loyihalarini amalga oshirish tranzit salohiyatini va real iqtisodiyotga investitsiyalar hajmini kengaytirishga ko‘maklashadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston hududida **SHHT mamlakatlari kapitali** ishtirokidagi 7,5 mingdan ziyod kompaniya faoliyat ko‘rsatmoqda, bu — mamlakatimizdagi barcha xorijiy korxonalarning yarmidan ko‘pini tashkil etadi.

Shu tariqa SHHT — O‘zbekiston uchun nafaqat tashqi siyosiy maydon, balki milliy manfaatlarni amalga oshirish instrumentidir. **Bizning tashkilot faoliyatidagi ishtirokimiz — tasodifiy tanlov emas, bu — strategik jihatdan puxta o‘ylangan, mamlakatimizning xavfsizligini, iqtisodiy o‘sishi va barqaror taraqqiyotini ta’minlaydigan qaroridir.**

Shu munosabat bilan **O‘zbekiston Shanxay hamkorlik tashkilotining kelajagini** iqtisodiy integratsiyani mustahkamlash, transportinfratuzilmasini rivojlantirish, “yashil” tashabbuslarni ilgari surish, raqamli transformatsiya, shuningdek, gumanitar va ijtimoiy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan **ko‘pqirrali va samarali platforma sifatida ko‘radi**.

“**Xavfsizlikni ta’minlash SHHTning hal qiluvchi ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston Xavfsizlik kengashlari kotiblari uchrashuvlari mexanizmi doirasida hamkorlikni kengaytirish uchun faol harakat qilmoqda, bu — huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini muvofiqqlashtirish, yoshlar o‘rtasida radikallashtirishning oldini olish bo‘yicha tajriba almashish, kiber xavf-xatarlarga qarshi kurashish va narkotrafik tarmoqlarining yo‘lini kesishga taalluqlidir. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ma’lumotlar almashish va xavfsizlik sohasida mutaxassislarni birgalikda tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.**

Biz savdo-iqtisodiy sohada SHHTning savdo va investitsiya salohiyatini har tomonlama yuzaga chiqarish uchun intilmoqdami. Savdo-sotiq yo‘lidagi to‘siqlarni soddalashtirish, bojxona tartib-taomillarini bekor qilish va unifikatsiya etish, SHHTning “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusida mujassam bo‘lgan maqsadlar bilan o‘zaro bog‘liqlik va uyg‘unlikni mustahkamlaydigan SHHT loyihalariga biznes vakillarini faol jalb etishni ushbu ishning eng muhim yo‘nalishi deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston kichik va o‘rta biznesni, innovatsion tarmoqlarni rivojlantirish va zamonaviy “yashil” va raqamli texnologiyalarni joriy etishni qo‘llab-quvvatlash uchun harakat qilmoqda. Elektron tijoratni rivojlantirish, “aqli” logistika tizimlarini yaratishga doir qo‘shma loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha muhim qadamlar tashlanmoqda, bu, o‘z navbatida, barqaror iqtisodiy o‘shishga ko‘maklashmoqda.

O‘zbekiston tomoni SHHT doirasida qo‘shma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan **o‘zaro moliyaviy hamkorlikning ta’sirchan ko‘p tomonlama mexanizmini** yaratish bo‘yicha takliflarni qo‘llab-quvvatlaydi.

SHHTning Taraqqiyot bankini tashkil etish bu yo‘ldagi ezgu bir qadam bo‘lgan bo‘lar edi, u qo‘shma infratuzilma va texnologik loyihalarini amalga oshirish, moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyatini yuksaltirish hamda a‘zo mamlakatlar mintaqalariga investitsiyalar oqimini rag‘batlantirish uchun platforma vazifasini bajarishi mumkin.



2025-yil 30-avgust, 179-son

4



www.yuz.uz



yuz.uz.news



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

NIGOH

YANGI O‘ZBEKISTON

YANGI YEROSTI AVTOMOBIL YO‘LI OCHILDI, ISLom SIVILIZATSIYASI MARKAZIDA ESA QURILISH YAKUNLANMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 29-avgust kuni Toshkent shahrida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Har yili xalqimiz Mustaqillik bayramiga yaxshilik va yangiliklar bilan qadam qo‘ymoqda. Bu yil ham yurtimiz manzillarida ko‘plab iqtisodiy-ijtimoiy inshootlar foydalanishga topshirildi, ayrimlarida qurilish ishlari yakunlanmoqda.

Davlatimiz rahbari dastlab Yangi O‘zbekiston ko‘chasida barpo etilgan yerosti avtomobil yo‘lini ko‘zdan kechirdi.

Yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish va transportlar harakatiga qulaylik yaratish — muntazam jarayon. Bu, ayniqsa, aholi soni oshib, hududi kengayib borayotgan Toshkent uchun dolzarb masala.

Xususan, so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekiston ko‘chasida istirohat bog‘i, uy-joylar, universitet va Olimpiya shaharchasi qurildi. Bu ko‘cha kelgusida Yangi Toshkent shahriga olib boruvchi asosiy yo‘llardan biri bo‘ladi.

Shu bois, Yangi O‘zbekiston ko‘chasi bo‘ylab uzunligi 468, kengligi 25 metr bo‘lgan yerosti avtomobil yo‘li barpo etildi. U soatiga 10 mingdan ziyod avtomobilni o‘tkazish imkoniyatiga ega.

Tunnelning usti yashil hududga aylantirilib, “Yangi O‘zbekiston” bog‘i bilan Olimpiya shaharchasi o‘rtasida piyodalarning xavfsiz harakatlanishi ta‘minlandi.

Shuningdek, mazkur yo‘nalishda loyihalashtirilgan metro yo‘li uchun tunnel va bekat ham qurildi.

Aytish joizki, yurtimizda amalga oshirilayotgan har bir loyihada ekologik jihatlar alohida inobatga olinadi. Yangi O‘zbekiston ko‘chasida barpo etilgan yerosti avtomobil yo‘li mashinalarning vaqt sarfini 2 barobarga qisqartirib, kuniga 1 tonna yonilg‘i iqtisod qilinishiga va atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar miqdori 2 tonnaga kamayishiga sabab bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari yerosti avtomobil yo‘lining zamonaviy standartlar asosida tashkil etilganiga e‘tibor qaratdi. Bu kabi ravon yo‘llar xalqimizga qulaylik yaratib, turizm rivojiga hissa qo‘shishi qayd etildi.

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida ham qurilish jadal davom etmoqda.

Mazkur ulkan va noyob loyiha O‘zbekiston Prezidentining 2017-yil 23-iyundagi qaroriga binoan boshlanib, 2018-yilgi Ramazon hayiti kuni unga poydevor qo‘yilgan edi. Bugungi kunda bunyodkorlik ishlari yakuniy bosqichga kirgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev markazga ham tashrif buyurib, so‘nggi pardozlash va jihozlash ishlari ko‘zdan kechirdi.

Mahobatli inshoot qadimgi me‘moriy obidalarimiz shaklida bunyod etilmoqda. Milliy gumbaz va peshtoqlar, naqshlarning ajoyib uyg‘unligi unga alohida ko‘rk bag‘ishlagan. Majmuaning to‘rt tomonida

balandligi 34 metrli peshtoqlar, o‘rtada 65 metrli gumbaz qurilgan.

Markazning eng asosiy qismida Qur‘oni Karim zali bunyod etilmoqda. Bu yerda musulmon dunyosining ma‘naviy durdonasi — qadimiy Usmon Mus‘hafi joylashtiriladi. Shuningdek, somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar, O‘zbekxon, temuriylar va boshqa tarixiy sulolalar davrida bitilgan muqaddas kitobimiz nusxalari va ularning eski o‘zbek tilidagi tarjimalari qo‘yiladi. Jahondagi eng nodir qo‘lyozma Qur‘onlardan namunalar ham o‘rin oladi.

Prezidentimiz ushbu zaldagi so‘nggi pardozlash ishlari ko‘rib, mutasaddilarga o‘z tavsiyalarini berdi.

Markazda 460 o‘rinli anjumanlar zali ham qurib bitkazildi. Bu yerda turli xalqaro uchrashuvlar, anjumanlar o‘tkazish uchun barcha sharoit yaratilgan, eng so‘nggi rusumdagi texnika vositalari bilan jihozlangan.



— O‘zbekiston ulug‘ tarixga ega. Buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy va madaniy meros insoniyat tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Ular bilan dunyo hamjamiyatini xabardor qilishda ushbu markazning o‘rni beqiyos bo‘lishiga ishonaman, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Majmuada “Islomdan avvalgi sivilizatsiyalar”, “Birinchi Renessans davri”, “Ikkinchi Renessans davri”, “O‘zbekiston XX asrda”, “Yangi O‘zbekiston



— yangi Renessans” kabi bo‘limlar tashkil etiladi. Mazkur davrlar tarixi turli ashyolar, qo‘lyozma manbalar, suratlar va multimedia vositalari orqali namoyish etilgan. Xorazmiy, Farg‘oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Burhoniddin Marg‘inoniy, Mahmud Zamahshariy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, Ali Qushchi kabi alloma va mutafakkirlarning serqirra faoliyati haqida ma‘lumot berilgan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Muin Nasafiy, Qaffol Shoshiy, Abdulxolig G‘ijduvoni, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xo‘ja Ahror Valiy kabi ulamolarning islom ma‘rifatiga qo‘shgan hisssasi atroflicha yoritilgan.

Ayni vaqtda majmuada Bibixonim, Xonzodabegim, Gavharshodbegim, Gulbadanbegim, Nodirabegim, Uvaysiy, Anbar Otin kabi tariximizda chuqur iz qoldirgan mashhur ayollarning ilm-ma‘rifat homiysi sifatidagi faoliyati ham o‘z ifodasini topgan.



Markazda ulug‘ ajdodlarimiz merosini chuqur tadqiq qilish, uni bugungi kunning o‘tkir muammolariga javob bera oladigan hayotbaxsh kulguga aylantirish zarurligi ta‘kidlandi. Buning uchun O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy nomidagi va boshqa xalqaro ilmiy-ma‘rifiy tashkilotlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi, zamonaviy tahdidlarga munosib ilmiy javoblarni topiladi.

Davlatimiz rahbari markazdagi bunyodkorlikni yuqori baholab, uning faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, ma‘no-mazmunini boyitib borish yuzasidan ko‘rsatmalar berdi.

— Sakkiz yil davomida bu yerda katta mehnat qilindi. Shunday salobatli va chuqur mazmunli markaz quridik. Bu yerga keladigan mehmonlar xalqimizning boy tarixi, ajdodlarimiz bilim va tafakkuriga tan beradi, o‘ziga katta ma‘naviy quvvat oladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz markazga tutash hududda barpo etilgan savdo va xizmat ko‘rsatish inshootlari bilan ham tanishdi. Bu kelgusida turizmni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Ziyodulla JONIBEKOV, Abdulaziz RUSTAMOV, O‘zA muxbirlari

YURT OZODLIGI UCHUN JON FIDO ETGAN AJDODLAR MATONATI — ULKAN IBRAT MAKTABI

Mustaqil mamlakatda, ozodlik va osoyishtalik muhitida yashab, bayramlar qilar ekanmiz, bu kunlarni sog‘ingan, buning uchun kurashgan insonlar beixtiyor yodimizga tushadi. Millatning xotirasi, g‘ururi, vijdoni borki, ularning fidoyiligi beiz ketmaydi, avlodlar tomonidan hamisha e‘zozlanadi.

Istiqlol bayrami arafasida o‘tadigan Qatag‘on qurbonlarini yod etish kunida ana shunday teran mohiyat mujassam.

Ushbu sana munosabati bilan 29-avgust kuni Shahidlar xotirasi xiyoboniga davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, nuroniylar, ziyolilar yig‘ildi.

Marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi.

Vatan fidoyilari haqiga Qur‘on tilovat qilindi. Elga osh tortildi.

Xiyobondagi ramziy qabr yonida ham Qur‘on tilovat qilindi. Shu yerda ulamo va ziyolilar bilan tarixni o‘rganish va yoshlarga o‘rgatish, mustaqillik va tinchlikni qadrlash haqida muloqot bo‘ldi.

— Har yili Mustaqillik bayrami arafasida Vatan ozodligi yo‘lida jon fido etgan ota-bobolarimiz haqlariga duo qilamiz. Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun kurashgan qahramon ajdodlarimiz jasorati biz uchun doimo ibrat maktabi bo‘lib qoladi, — dedi davlatimiz rahbari.

Ma‘lumki, o‘sha mash‘um yillarda 100 mingdan ziyod begunoh vatandoshimiz qatag‘on qilingan. Minglab yurtdoshlarimiz “xalq dushmani” degan nohaq ayblov bilan otib tashlangan, undan ham ko‘pi surgun qilingan. Ularning ortidan minglab ayollar beva, bolalar yetim bo‘lib qolgan. Oradan qariyb bir asr o‘tgan bo‘lsa-da, o‘sha mudhish davrni chuqur iztirob bilan esga olamiz.

Bular bugungi erkin hayotimizni yanada qadrlashga, mustaqillikni mustahkamlashga undashi ta‘kidlandi.

— Vatanimiz fidoyilarini ulug‘lash, xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha ko‘p ishlar qilyapmiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev. — So‘nggi sakkiz yilda 1 ming 200 dan ziyod jafokash bobolarimiz nomi oqlandi. “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi rekonstruksiya qilinib, minglab yangi hujjatlar bilan to‘ldirildi. Hududlarda ham shunday muzeylar tashkil etildi. Bu yil jadidchilik harakatining yo‘lboshchisi Mahmudxo‘ja Behbudiy ravalludining 150 yilligini nishonlayapmiz. Buxoro shahrida Jadidlar merosi davlat muzeyi tashkil qilinmoqda.

Endi bularning mazmunini, “tirik” tariximizni xalqimizga kengroq yetkazish kerak.

Mana, o‘tgan yildan e‘tiboran, har yili oktyabrning birinchi haftasini Siyosiy qatag‘on qurbonlarini yod etish haftaligi sifatida belgiladik. Bu yil ushbu tadbir Xotira va tarbiya haftaligi sifatida o‘tkaziladi. Xo‘sh, bu haftalikda xalqimizga nimalarni yetkazamiz, yoshlarimizga nimani o‘rgatamiz? Tarixchi olimlar, yozuvchi-shoirilar bilan birga buni chuqurroq o‘ylab, xalqchil, ommabop qilib yo‘lga qo‘yish kerak. Maktab va universitetlarda qo‘shimcha darslar, telekanallarda maxsus ko‘rsatuvlar berish, yoshlar o‘rtasida tanlovlar o‘tkazish mumkin. Mustaqillik qanday buyuk me‘nat ekanini, qanday kuchli ajdodlarimiz borligini elning

qon-qoniga singdirish kerak. Agar yoshlarimiz ruhan kuchli bo‘lsa, o‘z oldiga katta maqsadlar qo‘yadi, fanlariyam yaxshi o‘rganadi, yetuk shaxslar bo‘lib yetishadi.

Bu borada millat oydinlari hayotini o‘rganish g‘oyat muhim ekanini ta‘kidlandi.

— **Jadid bobolarimiz har sohada ilg‘or edi. Birinchi o‘zbek romani, teatr va kino asarlari, turli fanlar bo‘yicha darsliklarni aynan ular yaratgan. O‘tgan asrning 20-yillarida Germaniyada tahsil olgan turkistonlik talabalar qatag‘on qilinmaganida, butun jamiyatni o‘zgartirardi. Bor tariximizni to‘g‘ri yetkaza olsak, yoshlarimiz boshqa qahramon izlamaydi, yetuk bobolarimiz buning uchun tayyor namuna, — dedi Prezident.**

Bunday ma‘naviy asos umummilliy birlik va barqarorlik uchun ham zarur. Bugun dunyodagi vaziyat tahlikali bo‘lib boryapti. Davlatlarning mustaqilligiga tahdidlar paydo bo‘lyapti. Bularning barchasi bizdan doimo ogoh va hamjihat bo‘lib, islohotlarni izchil davom ettirishni talab qiladi.

Yaratganga shukrlar bo‘lsinki, yurtimiz tinch, odamlar ertangi kunga ishonch bilan yashayapti. Bu — eng katta boyligimiz.

Ulamolar yurtimizdagi shu tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka barqaror bo‘lishini tilab dualar qilishdi.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga tashrif buyurib, Mustaqillik monumenti poyiga gulchambar qo‘ydi.

Yurtimizning qadimgi tarixidan to bugunigacha bo‘lgan eng muhim voqealar, buyuk alloma va jahongir bobolarimiz siymolari aks etgan mazkur majmua Mustaqillik ramziga aylangan. Uning eng yuqori qismidagi Humo qushi mamlakatimiz gerbi, xalqimizning ezgu qadriyatlarini ifodalaydi.

Davlatimiz rahbari mazkur monument ona Vatanimiz, mard va jasur, tinchliksevar va mehnatkash, qahramon xalqimiz sharafiga bunyod etilgan buyuk obida ekanini ta‘kidlagan edi.

Mustaqillik monumenti poyiga gul qo‘yish marosimida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati, Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Toshkent shahar jamoatchiligi vakillari ham ishtirok etdi.

O‘zA

Dil izhori



G‘ayrat QODIROV, Jizzax viloyati IIB boshlig‘i, general-mayor

Ana shunda har qanday jinoyatchiga qarshi turish va uning changalidan odamlarni himoyalash uchun inson o‘zida sabot hamda jasorat topa oladi. Yuragi el ishida yongan kishiga xizmatning qiyinchiligi, mashaqqati sezilmaydi, olg‘a intilishdan to‘xtamaydi.

Yana yurt ravnaqi va xalq osoyishtaligi yo‘lida chekilgan zahmat e‘tirofsiz qolmasligini chuqur his etdim. O‘zim



VATAN ISHQI — MISLSIZ SABOT HAMDA JASORAT MANBAI

Ichki ishlar organlaridagi uzoq yillik faoliyatim davomida hayotning juda ko‘p haqiqatini angladim. Chunonchi, qonunbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini ta‘minlash uchun bilim, jismoniy va jangovar salohiyatning o‘zi kamlik qiladi. Qonun himoyachisi, eng avvalo, Vatanni sevishi zarur!

misolimda aytсам, 47 yillik xizmatim davomida ko‘p bora davlatimizning orden va medallari bilan taqdirlanganman. Jumladan, mamlakatimiz istiqlolining 28 yilligi arafasida Prezidentimiz qo‘lidan “Mardlik” ordenini qabul qilib olganman.

Davlatimiz rahbarining shu yil 24-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yilligi munosabati bilan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoni asosida esa I darajali “Shon-sharaf” ordeni bilan taqdirlandim. Tabiiyki, bunday yuksak e‘tirof, ishonch va rag‘bat ko‘nglimni cheksiz faxr va g‘ururga to‘ldirdi.

O‘rni kelganda aytish kerak, mamlakatimiz rivojlanishning yangi

bosqichiga qadam qo‘ygach, tizimimizda asrga tatigulik ishlar qilindi. Binobarin, tuzuk-quruq huquqiy bazaga ega bo‘lmagan soha bugun 200 dan ortiq huquqiy-me‘yoriy hujjatga tayanmoqda. Shaxsiy tarkibning jismoniy va jangovar tayyorgarligini oshirish, tizimning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijtimoiy himoyalarga borasida ham e‘tiborga molik natijalarga erishildi.

Masalaga Jizzax viloyati ichki ishlar organlari misolida yondashsak, keyingi yillarda viloyat IIB yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi, Zarbdor tumani IIB, boshqarmaga qarashli “Zomin” sog‘lomlashtirish oromgohi kabi qator inshootlar yangidan qurilganini e‘tirof etish joiz.

tushirib qoldirilgan buyumlarni topishda qo‘l keladi.

Bugungacha 2500 dan ziyod kuzatuv qurilmasi ushbu platformaga integratsiya qilindi. Qisqa muddatda mazkur ko‘rsatkichni 12 mingtadan oshirish rejalashtirilgan. Hozir huquqbuzarliklar profilaktikasi, patrul-posti va yo‘l-patrul xizmatlarining 670 xodimi planshet bilan ta‘minlangan. Shuningdek, YPXning 230, PPXning 71 xodimiga yonkamera berilgan.


Soha vakillari “E-patrul”, “E-probatsiya”, “E-material” kabi 50 dan ortiq dasturdan foydalanmoqda. Ushbu dasturlar ishimizni yengillashtirib, qog‘ozbozlikni qisqartirishda muhim omil bo‘layotir. Viloyatning barcha shahar va tumanlariga retranslyatorlar o‘rnatilgan esa hududning istalgan nuqtasidan qo‘l ratsiyasi orqali bog‘lanish imkonini berdi.

Ijtimoiy himoya masalasiga kelsak, keyingi yillarda 240 xodimimiz imtiyozli kredit asosida uy-joy bilan ta‘minlandi. Xususan, Sharof Rashidov tumanining Kuyovboshi mahallasida o‘tgan yili barpo etilgan yakka tartibdagi 56 ta uyga xodimlarimiz joylashdi. Ayni vaqtda hududda yana 48 ta shunday uy qurilyapti.

Tabiiyki, shaxsiy tarkibni zarur vositalar bilan ta‘minlash, sohada ilg‘or uslub va texnologiyalarni qo‘llash, qulay xizmat sharoitlari yaratishga qaratilgan islohotlar hamda “Xavfsiz shahar”, “Xavfsiz mahalla” kabi tamoyillarning hayotga izchil tatbiq etilayotgani yillarningchilikka qarshi kurashishga qaratilgan faoliyatimizga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Chunonchi, joriy yilning 7 oyini 2024-yilning mos davriga qiyoslasak, jinoyatlar qisqarganini ko‘rish mumkin.

So‘zim avvalida hayot haqiqati xususida to‘xtalgandim. Anglagan haqiqatlarimdan yana biri shuki, tinchlik bor joyda taraqqiyot bo‘ladi. Osoyishta go‘shada bola kulgisi yangraydi, ota-onaga qalbi farzand kamolotidan quvonchga to‘ladi. Qonunni himoyalayotganlar elga shunday saodatni tuhfa etadi. Men ana shu baxtni tuyib yashayotganlar safidaman.

Davlatimiz rahbarining “Odamlar ichki ishlar organining har bir xodimida o‘zining himoyachisini ko‘rishi kerak!” degan da‘vati bugun sohamiz har bir vakilining hayotiy shioriga aylangan va safimizdagi har bir qonun himoyachisini xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilishga undamoqda.



Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!

QUDRATLI KUCHGA AYLANAYOTGAN
YANGI O‘ZBEKISTON XALQIMIZNING BUYUK
MAQSADLARI RO‘YOBIGA ZAMIN BO‘LADI

Boshlanishi 1-betda

Mustaqillik berilmaydi, erishiladi. Bu shunday ne‘matki, unga jasorat, fidoyilik, qat’iyatli kurash bilan erishiladi. Ayniqsa, bugun yurtimizga ilk istiqlol epkinlarini olib kirgan, yurt, millat ozodligi yo‘lida mardonavor kurashgan jadid bobolarimizni xotirlamaslikning iloji yo‘q. Ilm mash‘alini tutib, xalqimiz tafakkurini o‘stirgan, yurtdoshlarimiz ongi, qalbiga erkinlik, ozodlikning ilk urug‘larini qadagan, vatan, millat ertasi uchun o‘z tinchidan voz kechgan Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon kabi yurt oydinlari sabab shu yorug‘ kunlarda umrguzaronlik qilyapmiz. Ularning jasorati avlodlari qalbidagi abadiy yashaydi.

Har yili mustaqillik bayrami arafasida qatag‘on qurbonlarining yod etilishi ham bejiz emas, albatta. Bu yil ham shunday bo‘ladi. Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni munosabati bilan asosiy bayram tantanasidan oldin, kunning birinchi yarmida Shahidlar xotirasini xiyobonida davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, nuroniylar, ziyolilar ishtirokida marosim o‘tkazildi.

Prezidentimiz O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagil nutqida Yangi O‘zbekiston g‘oyasi asosida uch ming yillik boy tarix va madaniyatimizni qaytadan idrok etganimizga e‘tibor qaratar ekan, “Yurtimiz zaminidagi Birinchi va Ikkinchi Renessans an‘analarini rivojlantirib, Uchinchi Renessans sari dadil amaliy qadamlar qo‘ymoqdamiz.

Ishonchim komil, bu yo‘lda Yangi O‘zbekiston davlati, Yangi O‘zbekiston jamiyati buyuk tariximizni yangi, yanada yuksak Uyg‘onish davri bilan bog‘laydigan mustahkam ko‘priki bo‘lib xizmat qiladi”, dedi.

Mustaqillik aytilmaydi, tan olinadi. 1991-yil 31-avgust kuni dunyo xaritasiga yangi, yosh bir davlat — O‘zbekiston qo‘shildi.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e‘lon qildi. Ammo bu hammasi hal bo‘ladi degani emasdi. Sababi, davlat mustaqilligi faqatgina e‘lon qilinmaydi, u xalqaro tashkilotlar, chet davlatlar, xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinishi hamda boshqa davlatlar bilan teng darajaga ko‘rilishi, o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalari o‘rnatilishi zarur. Bu bir-ikki yilda amalga oshadigan hodisa emas. Yillar davomida yuksalib, kuchayib boradigan islohotlar natijasidir. Ayniqsa, bu borada keyingi sakkiz yilda katta natijalarga erishildi. O‘zbekiston tom ma‘noda dunyoga yuz burdi va hammaning diqqatini o‘ziga qaratdi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Fikrimiz quruq bo‘lmasligi uchun umumiy taraqqiyot, aholi farovonligini aks ettiruvchi bir fakti misol tariqasida keltirib o‘tsak. 2024 yil yakunlari bo‘yicha mamlakatimiz YIM hajmi 115 milliard dollarga yetdi. Vaholanki, 2016-yilda bu ko‘rsatkich 67,2 milliard dollar edi. Joriy yil yakuniga qadar esa yalpi ichki mahsulotimiz hajmi 130 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

“Bu yil jami 35 milliard dollar investitsiya evaziga 9 mingga yaqin yangi korxona, xizmat ko‘rsatish majmualari barpo etiladi.

Eng ulug‘ bayramimiz arafasida 4 milliard dollarlik 79 ta yirik obyekt ishga tushirildi.

O‘tgan davrda birgina kichik va o‘rta tadbirkorlar soni 2 karra ko‘paydi. Bugun ushbu tarmoqda 10 milliarddan ortiq aholimiz mehnat qilib, daromad topmoqda.

Biz yil boshida 5,5 million aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha katta marra olgan edik. Sakkiz oyda yoq 5 millionlik rejani uddaladik.

Eng muhimi, islohotlarimizga ishonib, shu yilning o‘zida chetda ishlayotgan 700 ming fuqaromiz yurtimizga, o‘z oilasi bag‘riga qaytdi”, dedi Prezidentimiz.

...Sahnada dunyo xalqlari, shu jumladan, qo‘shni davlatlar va qardoshlarimiz san‘ati durdonasiga aylangan qo‘shiqlar ijro etildi. Bu yangi O‘zbekistonimizning dunyoga ochilgani, o‘z navbatida, dunyo bizga ochilgani, qolaversa, mamlakatimiz o‘z o‘rni va so‘ziga ega, global muammolarni samarali hal etishda tashabbuskor davlatga aylanib borayotganidan darak beradi...



Birgina shu yilning o‘zida mamlakatimizda o‘tkazilgan yirik, xalqaro sammit va forumlar, konferensiyalar, ilmiy-amaliy anjuman va yig‘inlar O‘zbekiston dunyo davlatlari nigohini o‘ziga qaratayotgan, shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan davlat ekanini bildiradi. Jumladan, shu yilning aprel oyida O‘zbekistonda bo‘lib o‘tgan uchta yirik tadbir — “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti, Samarqand xalqaro iqlim forumi, Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasida ko‘plab davlat va hukumatlar, xalqaro tashkilotlar rahbarlari, yetakchi xalqaro ekspertlar ushbu nufuzli anjumanlarda ishtirok etdi.

Bir yilda 20-30 dan ortiq shunday yirik xalqaro yig‘inlarga mezbondlik qilish, turli davlatlar bilan o‘zaro teng va manfaatli hamkorlik aloqalarini o‘rnatish mustaqilligimiz mustahkamlanib, xalqaro maydondagi nufuzimiz ortayotgani, yangi O‘zbekiston o‘z taraqqiyot yo‘lidan og‘ishmay borayotganidan dalolat beradi.

Prezidentimizning xalqaro tashkilotlar minbaridan turib bildirgan takliflari qisqa fursatda hayotga tatbiq etilayotgani dunyo davlatlari va xalqaro tashkilotlarning biz

bilan hamkor va xayrixoh ekanini bildiradi. Keyingi yillarda dunyo iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy oqimining o‘zanini belgilashda O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida o‘z ovozigga ega bo‘lib boryapti.

Bu jihadlar O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida taraqqiy etib borayotganining dalolati. E‘tiborlisi, bu shunchaki e‘tirof etilmayapti, bilaks, dunyo xalqlari tomonidan tan olinmoqda, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Yangi O‘zbekiston g‘oyasi mustaqillikni mustahkamlaydi.

...Bayram tantanasining katta sahnasi, ko‘zni quvontiruvchi chiroq va bezaklar, maxsus dronlar shousi. Bayramona kayfiyatdagi yurtdoshlarimizning qarsaklari, xushovoz san‘atkorlarimizning sehirli ovozi, ko‘ngilni ko‘taruvchi o‘yinoqi musiqadan sarmastman...

Xayolimda davlatimiz rahbarining nutqida qayd etilgan “Inson qadri uchun, inson baxti uchun” degan ergu tamoyilga asoslangan Yangi O‘zbekiston g‘oyasi amalda qudratli harakatga aylandi. Dunyodagi murakkab vaziyatga qaramasdan, iqtisodiyotimiz



6 foizdan yuqori sur‘atlarda barqaror o‘sayotgani xalqimiz o‘zi tanlagan yo‘ldan dadil borayotganini ko‘rsatmoqda”, degan fikrlari g‘ujg‘on o‘ynaydi.

Darhaqiqat, bugun mamlakatimizda yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida tarixiy o‘zgarish va yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Birgina aholini ijtimoiy himoya qilish sohasiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, tizim butunlay yangi bosqichga ko‘tarilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi va uning barcha hududlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi sohani karrasiga rivojlantirdi. Shuningdek, 65 dan ortiq ijtimoiy xizmat va yordam olish imkonini beruvchi ijtimoiy karta joriy etilishi aholiga yanada qulayliklarni taqdim etmoqda.

Endi ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bor yurtdoshlarimiz xat-hujjatlarini qo‘ltiqlab, turli idoralar eshigiga borayotgani ham yo‘q. Mutasaddilarning o‘zlari ularning uyiga kelyapti yoki turli platformalar orqali uydan chiqmasdan turib, turli ijtimoiy ko‘maklardan foydalanish uchun murojaat yo‘llayapti va ko‘makdan

onlayn tarzda “ijtimoiy karta”si orqali foydalanyapti. Bu qulaylik va imkoniyatlar O‘zbekistonni ijtimoiy davlatning yorqin namunalaridan biriga aylantirayapti. Mazkur o‘zgarishlar islohotlar markazida inson manfaatlari turganining yorqin dalilidir.

Kambag‘allikni qisqartirish, aholini muqim daromadli ish bilan ta‘minlash borasida ham zamon talablariga mos yangicha yondashuvlar asosida tizimli islohotlar amalga oshirildi. Bunda, birinchi navbatda, ishsiz fuqarolar malakasini oshirish, ularni kasb-hunarga yo‘naltirish, tadbirkorlik qobiliyati borlarni qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rildi. Shu maqsadda “Monomarkaz”, “Kovorking markaz”lari tashkil etildi. Startap loyihalar, kichik va o‘rta biznes vakillariga sarmoya ajratildi va o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yishi, kengaytirishi va jahon bozoriga chiqishi uchun har tomonlama qo‘llab-quvvatlandi. O‘tgan davr mobaynida ta‘lim bilan birga yoshlarga bozorida talab yuqori kasb-hunarlarini o‘rgatish tizimi noldan yaratildi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo‘lidagi mana shunday tarixiy yangilanish, asrlarga tatigulik o‘zgarishlar, xalqchil islohotlar natijasida mamlakatimizning iqtisodiy salohiyati yuksalib boryapti. Keyingi 7-8 yildagi yutuqlarimiz, haqli ravishda ko‘plab xalqaro tashkilotlar tomonidan e‘tirof etilayotir. Xususan, Garvard universiteti tahtiliga ko‘ra, oxirgi besh yilda “Iqtisodiy murakkablik indeksi”da O‘zbekistonning o‘rni 25 pog‘ona yaxshilangan. 162 turdagi milliy mahsulotimiz “dunyo bozorida raqobat ustunligiga ega” deb baholangan.

Shuningdek, Garvard ekspertlari fikricha, 2033-yilgacha O‘zbekistonning o‘rtacha yillik o‘sishi 5,6 foizni tashkil etadi. Xalqaro tashkilotlarning bunday uzoq muddatli vaqtini prognos qilayotgani sababi O‘zbekiston aniq g‘oya, reja va dastur asosida taraqqiy etib bormoqda. Davlatimiz rahbari farmoniga binoan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan vazifalarning binoan tasdiqlangan hayotga tatbiq etilayotgani har sohada ilg‘orlab borishimizga zamin yaratmoqda.

Zero, davlat mustaqilligi uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi, sport, ilmfan, madaniyat sohalarida xalqaro miqyosdagi muvaffaqiyatlarida namoyon bo‘ladi. Xalq ozodligi esa uning hayoti farovonlashib borishi bilan mustahkamlanadi.

Bayram tabdiridan Yangi Toshkentdagi bunyodkorliklar — Olimpiya shaharchasi inshootlarini tomosha qilib qaytar ekanman, ularning mahobati, yurtimizga, yurtdoshlarimizga keltiradigan nafini o‘ylab, biz birlashib, yagona xalq bo‘lib qurayotgan yangi O‘zbekiston har jabhada dunyodagi eng yuksak davlat, xalqimiz yetuk, barkamol, tom ma‘noda hur bo‘lishiga yana bir karra ishonchim komil bo‘ladi.

...“Yangi O‘zbekiston” bog‘i uzra mushaklar otiladi. Shu bilan mustaqilligimizning 34 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan bayram tantanasiga yakuniga yetdi. Bayram shodiyonalari esa yurtimiz bo‘ylab ko‘tarinki ruhda davom etmoqda.

Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

AFV —
INSONPARVARLIKNING
YUKSAK NAMUNASI

Inson qadri har bir davlat poydevorining mustahkamligi belgisidir. Yangi O‘zbekistonda bu tamoyil jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlash va adolatni qaror toptirishning bosh mezonini sifatida belgilangan va shu asosda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilayotir.

Eng ulug‘, eng aziz bayramimiz — Vatanimiz mustaqilligining 34 yilligi arafasida Prezidentimiz tomonidan imzolangan “Jazo muddatini o‘tayotgan, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan bir guruh shaxslarni afv etish to‘g‘risida”gi farmon mamlakatimizda shu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ergu islohotlarning yana bir amaliy tasdiq‘i bo‘ladi.

Afv etish mahkumini jazodan to‘liq yoki qisman ozod etadigan yoki sud tomonidan tayinlangan jazoni boshga yengilroq jazo bilan almashitiradigan yoxud sudlanganlikni olib tashlaydigan insonparvarlik tamoyili hisoblanadi. So‘nggi yillarda bunday imkoniyatdan bahramand bo‘lgan minglab yurtdoshlarimiz oilasi bag‘riga qaytib, tincho‘soyishda hayot kechirmoqda, halol mehnati bilan yurtimiz ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Prezidentimizning navbatdagi farmoniga asosan, yana 523 nafar vatandoshimizga shunday baxt nasib etdi. Afv etilganlarning 195 nafari asosiy jazodan to‘liq ozod etildi, 147 nafari jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, 87 nafari ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashtirildi. Shuningdek, 94 nafar shaxsa tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlari qisqartirildi.

Aslida, hech bir inson jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmaydi. Ammo hayotning achchiq sinovlari qarshisida inson irodasi qattiq sinovdan o‘tar ekan, shunday vaziyatlarda ba‘zilar bilib-bilmay yo‘ldan adashadi, xatoga yo‘l qo‘yadi. O‘z aybini anglab yetganida esa

nafarini taqiqlangan tashkilotlar faoliyatida qatnashgan shaxslar tashkil etadi.

Ayol oila qo‘rg‘onining nurafshon chirog‘i, kelajak avlodlar kamolotining tayanchidir. Har bir xonadonda onaning mehrga to‘la ovozi yangrab tursa farzandlar to‘kis va baxtli bo‘lib ulg‘ayadi. Farzand uchun onasi pishirgan taomchalik totdi ne‘mat yo‘q. Har bir o‘g‘il-qiz o‘qishdan, ko‘chadan, ishdan uyiga qaytar ekan, oldiga onasi peshvoz chiqqan lahzalardan ortiq shodiyona yo‘q. Ammo ba‘zi ayollar ana shunday baxtli hayotning qadriga yetmay, jinoyat yo‘liga kiradi. Natijada o‘zi ham, farzandlari ham aziyat chekadi.

To‘g‘ri, jinoyat yo‘liga kirgan ona jazoni o‘tashga kirishgach, davlatimiz tomonidan uning farzandlari taqdiri befarq qoldirilmaydi. Bolalar davlat qaramog‘iga olinib, ishonchli qo‘llarda tarbiyalanadi. Ammo ona diydori va mehri sog‘inchi ularning murg‘ak dilini o‘rtamay qo‘yarmidi?! Afv etilganlar orasida 45 nafar ayol borligi ana shunday so‘ngan chehralarga yangidan nur, qanchadan-qancha oilalarga shodlik baxsh etdi. Xususan, onadan ayro yashayotgan farzandlar uchun bebaho tuhfa bo‘ladi.

Inson uchun oilasi bag‘rida bo‘lish, farzandlarining kamolini ko‘rishdan ortiq baxt yo‘q, — deydi M.Karimova. — Afuski, buni hech angladim. Qilmishimdan ming bor pushaymonman. Gunohlarimni kechirib, oilamga qaytishga imkon bergan Prezidentimiz va xalqimizga ming bor tashakkur aytaman. Endi bunday xato yo‘llarga aslo qaytmayman. Menga bildirilgan bu ishonchni oqlash uchun halol mehnat

“ Afv instituti shaxsni faqat jazodan ozod etish bilangina cheklanmaydi. Bu borada ularning insoniy qadr-qimmatini tiklash, oila, mahalla, jamiyat hayotiga moslashib ketishiga zamin yaratish ham ko‘zda tutiladi. Farmonda mas‘ul vazirlik va idoralarga ushbu yo‘nalishda ham tegishli topshiriqlar berildi.

kech bo‘ladi. Jinoyatga jazo muqarrar. Jazoni ijro etish jarayoniga kirishar ekan, ozodlik qanchalik ulug‘ ne‘mat ekanini anglab yetadi. Agar yana bir bor imkon berilib gunohi kechirilsa, bunday xato yo‘llarga qaytib kirmasligini aytib, tavba-tazarru qiladi. Adashganni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, aybiga iqror bo‘lib kechirim so‘ragan insonni afv etish, unga imkon berish xalqimizning ergu fazilatidir. Bu borada muqaddas kitoblarimizda ham ko‘plab o‘g‘itlar keltirilgan. Adashib noto‘g‘ri yo‘lga kirganni, avvalo, to‘g‘ri yo‘lga boshlash, aybiga iqror bo‘lganni kechirish, unga rahm-shafqat ko‘rsatish kechiruvchi uchun ham yaxshiliklarga hosila bo‘lishi qayd etilgan.

Qolaversa, davlatchiligimiz tarixida afv etishga oid misollar ko‘p. Jumladan, buyuk Sohobqiron bobomir “Temur tuzuklari”da: “Menga yomonlik qilib, boshim uzra shamshir ko‘targanlar, ishimga ko‘p ziyon yetkazganlarni ham, agar ular iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelsalar, hurmatlab, yomon qilmishlarini xotirandan o‘chirdim”, deb yozgan.

Demak, hayot so‘qmoqlarida adashib xato qilgan va so‘ngra qilmishiga chin dildan pushaymon bo‘lgan shaxslarni kechirib, ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlash — jamiyatda egzulik va mehr-oqibati kuchaytirish, tinchlik va farovonlikka erishishning muhim omilidir. Shu bois, so‘nggi yillarda mazkur an‘analarni davomiylikni ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilayotir. Davlatimiz rahbarining bu galgi farmoniga asosan, afv etilganlarning 8 nafari chet el fuqarosi, 31 nafarini 60 yoshdan oshgan erkaklar, 220 nafari yoshlar (shulardan 1 nafari voyaga yetmagan) hamda 15

qilib, farzandlarimni vatanimizga foydasi tegadigan oqil va yetuk inson etib tarbiyalashga bor kuchimni sarf etaman.

Afv instituti shaxsni faqat jazodan ozod etish bilangina cheklanmaydi. Bu borada ularning insoniy qadr-qimmatini tiklash, oila, mahalla, jamiyat hayotiga moslashib ketishiga zamin yaratish ham ko‘zda tutiladi. Farmonda mas‘ul vazirlik va idoralarga ushbu yo‘nalishda ham tegishli topshiriqlar berildi.

Jumladan, afv etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag‘riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug‘ullanishi, sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yib, jamiyatda munosib o‘rin topishi uchun ularga ko‘mak berish belgilangan.

— Afv instituti jazo muddatini o‘tayotgan, qilmishidan chin dildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy kirgan shaxslarga yangi hayotga qaytish imkoniyatini taqdim etmoqda, — deydi Toshkent shahar Shayxontohur tumani “Yangiobod” MFY raisi Manzura Valiyeva. — Ahamiyatlisi, ushbu xayrlar an‘ana nafaqat ular, balki jamiyat uchun ham o‘ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga ega. Zero, afv adolat mezonlarini ta‘minlab, jamiyatimizda odillik va bag‘rikenglik muhitini mustahkamlaydi. Bu xayrli ishlar bardavom bo‘lishi har birimizning zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi. Jumladan, “mahalla yetilligi” tomonidan afv etilganlar va ularning oilasidan doimiy xabar olinib, bandligini ta‘minlash, agar zarur bo‘lsa, tibbiy-ijtimoiy ko‘mak berish choralari ko‘riladi.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri




USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Millat

O‘Z QAHRAMONLARINI unutmaydi



Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Qolaversa, o‘tmishdan saboq chiqarish, xususan, qatag‘on qurbonlarining taqdiri va merosini yodga olish ham yurtimizda inson qadrini yuksaltirish siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Boisi, totalitar tuzum davrida eng asosiy huquqlardan — so‘z, fikr va vijdon erkinligidan mahrum etilgan minglab insonlarning taqdiri bugungi avlod uchun katta darsdir. Shu ma’noda, qatag‘on qurbonlarini yod etish, ular nomini tiklash, ma’naviy merosini avlodlarga yetkazish orqali jamiyatda adolat, erkinlik va insonparvarlik qadriyatlarini mustahkamlashga e’tibor qaratilmoqda. Bu esa mustaqil O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash yo‘lidagi ishlar zamonaviy siyosatning tarix bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Vatan mustaqilligi haqida gap ketganda, bundan bir asr oldin ijtimoiy-siyosiy fenomen sifatida shakllangan jadidchilik harakati namoyandalari ko‘z oldimizga keladi. Millatparvarlik, ma’rifatparvarlik va taraqqiyparvarlik g‘oyalari ilgari surgan bu harakat vakillari o‘lkani asriy qoloqlik botqog‘idan xalos etish va mustamlakachilik davridagi iqtisodiy, madaniy tanazzulga chek qo‘yishga intildi. Xalqimizning Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon singari fidoyi farzandlari o‘z nomini chin ma’noda tarixga muhrlagan hazrati insonlar edi. Ular istiqloqla erishish, yurtning har tomonlari rivojlanishi uchun, birinchi navbatda, milliy kadrlarni tayyorlashga alohida urg‘u berdi.

Mazkur yo‘lda mahalliy yoshlarni Germaniyaga, shuningdek, boshqa ilg‘or mamlakatlarga yuborish, ular yordamida bu yurtlarda erishilgan ilmiy-texnik yutuq va tajribalarni olib kirishni maqsad qildi. Mana shunday uzoqni ko‘zlagan loyihani amalga oshirish uchun o‘sha davrda yurtning ziyoli boylari salmoqli ulush qo‘shgani, natijada Turkiston va Buxorodan 1922-yil oxirlarida yuzga yaqin yosh yigit-qiz Germaniya oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlariga qishloq



xo‘jaligi, to‘qimachilik sanoati, kimyo, elektrotexnika, konchilik, falsafa, pedagogika, tibbiyot va boshqa dolzarb sohalar bo‘yicha o‘qishga yuborilgani arxiv hujjatlaridan ma‘lum. Bundan tashqari, Istanbul, Boku va Moskvaga ham bir guruh turkistonlik yoshlar tahsil olish uchun jo‘natilgan.

Taassufki, bu ulug‘ niyatlar o‘sha davrning og‘ir toshlari ostida yanchildi. Millat ziyolilari qatag‘on qilindi. Xalqning istiqloqla tashnligi, intilishi ayovsiz jazolar, kuchli tashviqot va noinsoniy umumharakatlar bilan bostirildi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, O‘zbekiston o‘z suvereniteti, davlat mustaqilligiga osonlik bilan erishgan yo‘q. Bu yo‘lda ajdodlarimizning siyosiy va ma’rifiy intilishlari so‘nggi bir yarim asr davomida deyarli to‘xtamadi. Hurriyat uchun kurashgan ko‘plab fidoyilar qatag‘on etildi, zulm va zo‘ravonlik qurboni bo‘ldi.

Bundan o‘titiz to‘rt yil oldin, og‘ir va murakkab tarixiy vaziyatda ko‘lga kiritilgan istiqloq tufayli xalqimiz tiynatidagi erk va ozodlikka bo‘lgan ishonch yana qayta uyg‘ondi.

Katta qirg‘in yillarida qatag‘on etilgan xalqning sof vijdonli farzandlari xotirasini abadiylashtirish, ularning xalq va vatan manfaatlari yo‘lida kechgan hayotlarini o‘rganish, adabiy va ilmiy meroslarini xalqqa yetkazish qarori bugun nechog‘liq katta qadam bo‘lganini ko‘rib, bilib turibmiz.

Shonli tariximizni soxtalashtirish, noto‘g‘ri talqin etish harakatlariga istiqloq yillarida barham berildi. “Xalq dushmani”, “aksilingilobchi”, “quloq” sifatida qoralanib, qatag‘on etilgan ajdodlarimizning pok nomlari oqlandi. Tarixiy haqiqat va adolatni tiklash bo‘yicha olib borilgan ishlar, eng avvalo, hurriyat yo‘lida jon fido etgan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirishga qaratildi.

1999-yil 12-mayda 22 kishidan iborat mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish komissiyasi tuzilib, poytaxtimizda “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi barpo etilishi boshlandi.

Nihoyat “xalq dushmanlari”ning qarindosh-urug‘lari bo‘lganligi uchun xo‘rlangan va insoniy huquqlari toptalgan kishilar yonug‘ kunlar kelganidan behad baxtiyor bo‘ldi. Qatag‘on davri jabrdiydalari xotirasining e’zozlanishi va

abadiylashtirilishiga qaratilgan maqolalar, chiqishlar, intervyular matbuot, radio va televideniyeining bosh mavzularidan biriga aylandi. Mahalla va tashkilotlarda mudhish davrning achchiq tuzini totgan kishilarga bag‘ishlangan xotira kechalari o‘tkazildi. Maxfiy qatlgohlarda otib tashlangan ajdodlarimizni davlat va umumxalq miqyosida yod olish ishlari boshlanib ketdi.

“Mening yoshim oltmish yettida. Otam Inomboy Xolyigitov qassob bo‘lgan... NKVD xodimlari otam yashagan Chortoq tumani Ayqiron qishlog‘idagi uyida tintuv o‘tkazib, uning bor mulkini olib ketishgan. Uy-joyimizni tortib olib, kolxozga berishgan. Men u paytda uch yashar bola bo‘lganman. Otamni “sho‘ro hukumatiga qarshi millatchi unsur” sifatida qamoq jazosiga hukm qilishgan... Onamning etagida to‘rt go‘dak,



uy-joydan ayrilib, darbadar ko‘chada qolganmiz. Akam, ukam va singlim ochlik va kasallik tufayli o‘lib ketgan. Keyin onam vafot etdi...” (Shamsiddin Inomov xatidan).

“...1937-yilning kuzida otam Mehmonxon Muzaffarovni hibsga olishgan. Uychidagi klubda otam va yana bir necha kishi sud qilingan, hammasiga oliy jazo belgilangan...

Men 1948-yili Toshkentdagi huquqshunoslik bilim yurtiga o‘qishga bordim. Hatto paxta terimiga ham borib keldik. Bir kuni direktor meni qo‘qqidan o‘z xonasiga chaqirib qoldi. ICHKarida bir necha begona kishilar ham bor ekan. Ular mendan: “Otang qamalganmi?” — deb so‘rashdi. “Ha, lekin keyinchalik oqlangan”, — dedim men. Ular boshqa gap aytishmadi, ketishdi. Shundan so‘ng meni o‘qishdan haydashdi...” (Said Muzaffarovning xatidan).

“...O‘tizinchi yillarda nohaq qamalgan va qatag‘onga uchragan kishilar orasida mening otam ham bor. 1937-yilning boshlarida otam Obid Usmonov ukasinikiga borgan vaqtida NKVD xodimlari ushlab, olib ketishgan. Dadamga qanday ayb qo‘yishgan, necha yilga qamashgan va u qachon vafot etgan, buni aniqlay bilmayman...” (toshkentlik Matluba Obidova xatidan). (Naim Karimovning “Shahidlar yodi” maqolasidan).

Bunday xatlarning barchasida yaqin jigarlarining nima uchun qamalгани, qachon

va qayerda vafot etgani to‘g‘risida ma‘lumot berish va, agar imkon bo‘lsa, suratlarini yuborish so‘ralgan edi. Ularni shunchaki o‘qish mushkul. Ammo bundan-da og‘iri — o‘sha xatlarning egalarga oid ma‘lumotnoma topish maqsadida arxivlarda o‘tirib, asossiz qamalgan, tuhmat asosida allambalo qog‘ozlarga majburan qo‘l qo‘yg‘an, otuvga yoki uzoq yillik jazoga hukm qilingan mahbuslarning ko‘z yoshlariga belangan tergov hujjatlarini varaqlash edi. Shunga qaramay, jamg‘armaning fidoyi faollari bo‘lmish Rustam Shamsutdinov, Xolida Ahrorova, Sherali Turdiyev, Sirojiddin Ahmedovlarning sa’y-harakatlari bilan qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtiruvchi o‘nlab risola va kitoblar, yuzlab maqolalar chop etildi.

Har bir o‘zgarish, avvalo, ongda yuz beradi. Har bir islohot — tovonidan ko‘ngilga

asosida o‘qitish tizimini ham ishlab chiqish lozimligini ta’kidlagan edi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta’lim muassasalari tuzilmasida Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida mamlakatimizdagi qator oliy o‘quv yurtlarida Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi tashkil etildi.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 8-oktabrdagi “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoyishida qatag‘on qurbonlarini viloyat, tuman va shaharlar kesimida nomma-nom aniqlash, ularning hayoti va faoliyati, tarixiy xizmatlari haqidagi ma‘lumotlarni, arxiv va muzeylarda saqlanayotgan hujjatlarni to‘plash, o‘rganish, qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtodoshlarimizning avlodlari va yaqinlari, o‘sha davr voqealarini chuqur biladigan kishilarning xotiralarini yozib olish, oilaviy arxiv va kutubxonalarda saqlanayotgan tarixiy materiallar, noyob suratlarini to‘plash, shuningdek, qatag‘on qurbonlari hayoti va faoliyatini ilmiy tadqiq etish, ular haqida ilmiy-tarixiy kitoblar, badiiy va hujjatli filmlar yaratish yuzasidan qator vazifalar belgilab berildi.

Farmoyish asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kesimida jami 14 ta “Qatag‘on qurbonlari” xotira kitobi tayyorlandi. Ular poytaxtimizdagi “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasida barpo etiladigan ramziy xotira kitobiga kiritildi.

Mustaqillik bayrami arafasida, bugungi tinchlik, erkinlik sharoitida qahramon bobolarimizning pok nomlarini eslash, tabarruk xotiralariga ehtirom ko‘rsatish buz uchun ham qarz, ham farzdir. Shu bois, dunyodan o‘tgan vatandoshlarimizning qadri tiklandi. 2024-yil 19-iyul kuni davlatimiz rahbari “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtodoshlarimizning hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi qarorga imzo chekdi.

Hujjatda qayd etilishicha, 2021-2024-yillarda O‘zbekiston Oliy sudi 1200 dan ortiq siyosiy qatag‘on qurbonini oqlagan. Bu ishlar yanada tizimli ravishda davom ettirilmoqda. Shu maqsadda siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan vatandoshlarimizning hayoti va faoliyatini o‘rganish, xotirasini abadiylashtirish ishlari muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika komissiyasi tuzildi. Qaror bilan komissiyaning asosiy vazifalari belgilanib, uning ishchi organi etib Mudofaa vazirligining umumiy rahbarligi ostida — Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, FA Tarix instituti, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi, Qurolli Kuchlar akademiyasi, Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini

o‘rganish instituti, “G‘alaba bog‘i” memorial majmuasi, “Shon-sharaf” davlat muzeyining mas’ul shaxslari va yetakchi mutaxassislari guruhi tayinlandi.

Shuningdek, har yili oktyabr oyida Siyosiy qatag‘on qurbonlarini yod etish haftaligini o‘tkazish belgilandi. Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan vatandoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Davlatimiz rahbari ushbu qarorning mohiyati va maqsadi haqida shunday degan edi:

— Shu paytgacha qatag‘on qurbonlarining to‘liq ro‘yxati shakllantirilmagandi. Holbuki, bu ro‘yxatdagi har bir raqam ortida inson taqdiri bor. Shahid ketgan, qatag‘on qilingan har bir yurtodoshimizning hayoti — qahramonlik. Shu bois, biz qarorda qatag‘on qurbonlarini nomma-nom aniqlash, ularning ibratli hayotini o‘rganish va tadqiq etish masalasiga alohida e’tibor qaratdik.

Darhaqiqat, tarixiy haqiqatni tiklash maqsadida ularning tabarruk nomlari ko‘p jildlik “Qatag‘on qurbonlari” kitobi sahifalarga yozilmoqda.

Chet davlatlarda, hatto o‘zimizdagi arxivlarda bumasalaga oid barcha ma‘lumotlar to‘liq o‘rganilmagani sabab, bu borada ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etilayotir. Endi har yili, yuqorida ta’kidlanganidek, oktyabr oyining birinchi haftasini mamlakatimizda Siyosiy qatag‘on qurbonlarini yod etish haftaligi sifatida nishonlaymiz.

Xo‘sh, nega aynan bu oy tanlandi? Chunki 1938-yil 4-16-oktabr kunlari 507 nafar o‘zbekistonlik siyosiy mahbus ustidan hukm o‘qilgan. Eng yetakchi shaxslar qatl etilgan. Ular orasida yetuk ziyolilarimiz, Germaniya-da o‘qib kelgan yosh, ilg‘or mutaxassislar, tanqli davlat va jamoat arboblari bo‘lgan.

— Bu sana xalqimiz tarixidagi eng qayg‘uli kunlardan biridir. Shuning uchun bu haftalikni katta tayyorgarlik bilan, birdamlikda o‘tkazishimiz kerak, — deya ta’kidlagan edi Prezidentimiz.

Shundan so‘ng mazkur haftalik davomida aholi o‘rtasida uchrashuvlar, turli ko‘rgazma va tanlovlar, shu mavzuga oid kino namoyishlari o‘tkazildi. Viloyat, tuman va shaharlar hokimlari, vazirlik va idoralar rahbarlari, boshqa mas’ul shaxslar qatag‘on qurbonlari yashab o‘tgan xonadonlarga kirib, ularning avlodlaridan xabar oldi. Fidoyi ajdodlarimiz tug‘ilib o‘sgan, yashagan mahallalar va maktablarda Xotira burchaklari tashkil etilmoqda.

Shu tariqa odamlar qatag‘onga uchragan mahalladoshlari haqidagi ma‘lumotlar bilan tanishib boryapti. Mustaqillik qanday og‘ir yo‘qotishlar evaziga qo‘lga kiritilgan buyuk ne’mat ekanini anglab yetyapti. Xalqimiz qanday mash’um kunlarni boshdan kechirganini tushunyapti. Fidoyi ajdodlarimiz eng og‘ir paytlarda ham vijdonini, milliy o‘zligini saqlab qolganini yurakdan his etmoqda, his etyapmiz.

O‘zbekistonning har bir qarich yeri, har bitta dovoni, qir-adiri, har kun o‘tayatgan va har kech botayotgan quyosh, hamma-hammasi o‘tmishda qurbon bo‘lgan ajdodlarimiz xotirasi bilan to‘yingan. Bu muqaddas tuproqda minglab fidoyilarning izlari bor. Ularning qurolsiz kechgan janglari bordir, biroq qo‘yasiz aslo urushga kirmagan. To‘g‘ri, ularning ko‘pi maydonlarda mag‘lub bo‘lgan, ammo tarix sahifalarida hamisha g‘olib. Ulardagi ruh quvvati bugungi jamiyatda harakat va jur’at, ijvati siljish paydo qiladi. Ushbu qahramonlik, elparvarlik fe’l-atvori ayni islohotlarga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

“Yangi O‘zbekiston” jumlasida faqat yangilanish emas, balki ko‘hna qadriyatlarni zamonaviy tafakkur bilan uyg‘unlashtirish g‘oyasi yotganini anglagan har kishi bugun ketma-ket oqlanayotgan millat fidoyilari xotirasiga hurmat — oddiy bir marosim emas, balki o‘ziga xos taraqqiyot harakati ham ekanini tushunadi. Avlodlar orasidagi vatanparvarlik kayfiyati uzviyligini ta’minlash uchun qilinayotgan ushbu ishlar bugun mustahkam, barqaror jamiyat yuzaga kelishiga zamin yaratmoqda.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-846.
34930 nusxada bosildi.
Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Bahor Xidirova
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘za yakuni — 03:42